

## Manaviyatga etibor Kelajakga etibor.

Azaldan xalqimiz kitobga mehr qo'yib, uni qadrlab, o'qishga ishtiyoq ota-bobolarimizning qon-qoniga singib ketgan. Ota-bobolarimizning ilm va fan, adabiyot va san'atga oid nodir qo'llanmalari bilan haqli ravishda faxralanamiz. Dunyoning mashhur kutubxonalarida xalqimizning ulug' allomalari, tafakkur xazinasini yaratgan donishmandlarining qo'lyozmalarini kitob holiga keltirib, boqiy umr bag'ishlagan xattotlar, musavvirlar ijodlaridan namunalar saqlanib kelmoqda.



Bugun Adiblar xiyobonidagi Alisher Navoiy haykali poyida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamoasi, ijodkorlar, poytaxtimizdagi oliy ta'lim muassasalari rahbariyati va talabalar jam bo'ldi, shu jumladan universitetimiz rahbariyati bilan birgalikda A.Oripov nomidagi stipendiantlar, SXTE va B fakultetining faol va iqtidorli talabari ishtirok etishdi. U yerda adiblar haykallariga birlashtirilgan oliy ta'lim muassasalariga kitoblar topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tantanali marosimda Toshkent shahridagi 24 ta oliy ta'lim dargohlari va bu yerdagi adiblar haykallarni yaratishda bosh-qosh bo'lgan O'zbekiston Badiiy akademiyasiga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan chop etilgan jami 10000 dona badiiy kitob topshirildi.

Tadbirda ustoz ijodkorlar boshlab bergan nutqlar adabiyotga ishtiyoqi baland talaba yoshlar mushoirasiga ulanib ketdi. Shuningdek, Universitetimizning A.Oripov nomidagi stipendiya sohiblari SXTE va B fakulteti 2-bosqich talabasi Fayzullaev Bekzod va QSXET fakulteti 2-bosqich talabasi To'qsonov Jasurbeklar o'z ijodidan namunalar o'qidi.

Har birimiz bilim bulog'i bo'lgan kitobni sevish, mutolaa uchun uni tanlay olish va ko'z qorachig'idek asrashni burchimiz deb bilishimiz shart!



